

TARJIMASHUNOSLIK ISTIQBOLLARI VA YANGICHA YONDASHUVLAR**Bobokulova Gulrux Sharipovna****Buxoro davlat universiteti****Fakultetlararo chet tillar kafedrası****<https://doi.org/10.5281/zenodo.8394445>**

Vaqt o'tishi bilan har bir til rivojlanib boradi. Rivojlanish jarayonida ba'zan muvaffaqiyatlarga, bazan keskin burilishlarga va muammolarga duch kelishi mumkin. Til millatning ko'zgusi demakdir. Ayni shuning uchun ham tildagi vujudga kelayotgan muammolar barcha uchun muhim va birinchi darajadagi omil bo'lmog'i kerak. O'zbek tilining taraqqiy jarayonlariga alohida to'xtaladigan bo'lsak, XII XIII asrlardan XX asr boshlarigacha ulug' allomalarimiz Lutfiy, Atoyi, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Feruz, Muqumiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarimizning shoh asarlari yozilgan eski o'zbek tili hozirgi o'zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun poydevor bo'lgan. O'zbek tilining takomillashuvida Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy singari o'nlab, yuzlab so'z ustalari xizmat qilgan bo'lsalar, Alisher Navoiy uning obro'yini dunyoga tanitdi. XII asrdan to bugunga qadar tilimizda ulkan o'zgarishlar yuz berdi; ko'p so'zlar iste'moldan chiqdi, qanchadan qancha yangi so'zlar paydo bo'ldi va ularning o'rnini egalladi. Shuningdek bugun ham tilimizda bir qancha o'zgarishlar yuzaga kelmoqda. Tarjimashunoslik sohasida bu o'zgarishlar, ayniqsa, o'z aksini topmoqda. Ma'lumki, til so'zga qo'shimchalar qo'shish orqali so'z hosil bo'lishi, yangi ixtirolarni nomlash, so'zni boshqa tillardan o'z xolicha o'zlashtirish va tarjima amaliyoti jarayonida boyib boradi. Til boyishining tarjima amaliyotidagi jarayoni murakkab va o'ta mas'uliyatli jarayondir. Sababi shundaki, tildagi bitta notog'ri tarjima ko'plab muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Tarjima, atama, ixtisoslashuv, ona tili, konferensiya, tahlil va tahrir. Tarjima so'z, tushuncha, gap, matn, asar va hokazolarning bir tildan ikkinchi tilga o'girilishidir. Tarjimaning muhimligi shundaki:

1. O'rganilishi kerak bo'lgan bilimlar majmuasini kengaytiradi.
2. Har ikki yoki undan ortiq tillardagi ma'lumotlarni o'zaro qiyoslash, atroflicha fikrlash imkonini yaratadi.
3. Tillarning ichki imkoniyatlarini mukammal o'rganishga turtki bo'ladi.
4. Fikrlash doirasini kengaytirib, bahsli munozaralarda ayni bir tildan o'rinli dalillarni keltira olishga ko'maklashib, suhbatdoshlardan ustunlikni ta'minlab beradi. Biroq so'nggi vaqtlarda tarjimashunoslikda bir qancha muammolar paydo bo'lmoqda:
 1. Nomutanosiblik, ya'ni bir tilda ko'zlangan aniq ma'no ikkinchi tilga tarjima qilinganda mos kelmasligi. Masalan, "Brain drain" so'zini ingliz tilidan so'zma-so'z tarjima qilsak, "aqlarning sizib chiqishi" tarjimasini beradi. Biroq bu so'zning izohida "Immigration of skilled individuals from their country, typically for higher wages or better working conditions" yozilgan. Tarjimasi: malakali shaxslarning odatda yuqori 300 ish haqi yoki yaxshi ish sharoitlari uchun yashash joyidan boshqa mamlakatga ketishi. Demak, yakuniy xulosa beradigan bo'lsak, "Brain drain" so'zini "aqlarning sizib chiqishi" deya tarjima qilish xato. To'g'ri muqobili "Ziyoli qatlamning ketishi".
 2. Fikriy g'alizlik. So'zma-so'z tarjima qilinganda yanglish ma'no anglatadigan tarjimalar. Bevosita yana yuqorida tarjimaga qaytamiz. "Brain drain" – "aqlarning sizib chiqishi". Bunda "-lar" qo'shimchasi mavhum otga bevosita bog'langanligi sababli kesatish ma'nosini ifodalab qolgan. Bunday hollarda albatta, o'rinli ma'nodosh so'zni topib qo'llagan ma'qul.

3. Ma'nosi yo'q tarjimalar. Bunday tarjimalar hozirgi vaqtda asosan Google, Vikipediyalarda tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Masalan, "Moocksp.ru" da joylashtirilgan tarjimalar:

1. Agar ishtirok etsangiz, aktyor ko'tarib bo'lmaydi;
2. Kechirasiz, teatrga taqlid qiladigan kabetga o'xshaydi;
3. Kabaretdan ilhomlangan teatrni ko'rish hatto erigi;

Guvohi bo'lganingizdek bu va Google ga joylangan ko'plab tarjimalarda umuman mazmun yo'q.

4. Tarjima qilinmasdan o'zlashtirilayotgan so'zlar. Masalan, ksenofobiya, immigratsiya, standart, ekspluatatsiya, memorandum va shu kabi bir qator so'zlarning o'zbek tilidagi muqobili bo'lishiga qaramay ulardan foydalanmaslik. Ayni mana shu oddiy ko'ringan jarayon ham kelgusida muammolarga sabab bo'lishi mumkin:

1. O'zbek tilida muqobili bo'lishiga qaramay o'zlashtirilgan atamaning tilimizdagi ayni muqobili iste'moldan chiqishi.
2. O'zlashma so'zlarning ortishi natijasida tilning tub boyligi torayib, ma'nan qashshoqlashish.
3. O'zga tillarning o'z tilimizdan ustuvorligi. Zamon taraqqiyoti, axborot almashinuvining jadallashganligi bois bu kabi muammolar yuzaga kelishi tabiiy hodisa. Jarayonda faqatgina holis yondashuv uyushqoqlik va so'nggi qarorni ko'pchilikning muhokamasi bilan qabul qilish samara beradi. Zeroki, til -millat ko'zgusi va u hammaning birdek mulki!

1. Sohalari bo'yicha kichik guruhlariga bo'linib, ixtisoslashuv tamoyilida ishlash. (Masalan matematika sohasiga oid atama yoki terminlar tarjimasini, albatta, ayni shu soha egasi yaxshiroq tushunadi, his qiladi)

2. Tarjima amaliyotida sohaning ayni vakillaridan tashqari tilshunoslarni jalb etish. (Keyinchalik til taraqqiyotiga qay darajada ta'sir etish omillarini batafsil o'rganish yuzasidan)

3. Maktab darsligi ona tili fani negiziga tarjimashunoslik, tarjimaning ahamiyati ta'sir doirasiga oid kichik matnlar berib, bu haqida boshlang'ich va asosiy tushunchalarni o'rgatish.

4. Ma'lum bir fan yoki sohaga oid tarjima yakunlangach, konferensiya kuni belgilanib, oldindan tarjima matni va izohi taqdim etilgan holda shu oy yakunida 2. kundan-5 kungacha bo'lgan muddatda tarjimani yetakchi mutaxassislar bilan birgalikda tahlil va tahrir etish.

5. Tahlil va tahrir jarayonida o'girilayotgan til (deylik o'zbek tili) ning imkoniyatlari, zahirasidan unumli va o'rinli foydalanish.

References:

1. "Moocksp.ru" tarjimalari.
2. "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" Nargiza Erkaboyeva (2017-yil. 10-bet)